

**TEXNOLOGIYA MASHG'ULOTLARIDA O'QUVCHILARDA QADIMIY
ME'MORCHILIK YODGORLIKHLARI TO'G'RISIDA BILIMLARINI
SHAKLLANTIRISH**

Abdullayeva Komila Tursunovna, Astanova Mohira Muxtarovna,

Abdusalomova Zebiniso Asror qizi*

Qarshi Davlat Universiteti o'qituvchilari, *Qarshi Davlat Universiteti talabasi,
O'zbekiston

e-mail: K.abdullayeva71@mail.ru

Annotasiya: Ushbu maqolada talabalarda O'zbekiston yodgorliklari va tarixiy, madaniy obidalar bilan milliy madaniyatimizni o'rgatish orqali milliy mafkurani singdirish, yuksak ma'nnaviyat va marifat bilan faxrlanish tuyg'sini mustahkamlash masalalari yoritilgan.

Tayanch iboralar: texnologiya, qadriyat, mustaqillik, milliy g'urur, Grek-Baktriya, Kushon, podsholik, Ismoil Somoni maqbarasi, Arab ota maqbarasi, Fayoz tepa, Navoiy tumanidagi Mirsaid Baxrom.

Аннотация: Эта статья о памятниках Узбекистана и внедрении национальной идеологии путем обучения студентов нашей национальной культуре с использованием памятников истории и культуры, развивайте гордость за счет высокой духовности и просвещения.

Основные фразы: технологии, ценности, независимость, национальная гордость, Греко-Бактрия, Кушан, царство, мавзолей Исмаила Сомони, мавзолей Араб ота, Файоз тепа, Мирсаид Бахром в Навоийской области.

Annotation: This article is about the monuments of Uzbekistan and the introduction of national ideology by teaching students our national culture using historical and cultural monuments. Build pride in high spirituality and enlightenment.

Key phrases: technologies, values, independence, national pride, Greco-Bactria, Kushan, kingdom, the mausoleum of Ismail Somoni, the Arab Ota mausoleum, Fayoz tepa, Mirsaid Bakhrom in the Navoi region.

Respublikamiz o'zining madaniy va tarixiy merosiga ega bo'lgan mustaqil ulkan olimlar astronom va matematiklar, shoirlar o'tgan ulug'langan makondir. Shunday ekan biz milliy g'oya va mafkurani talabalarga singdirishda, faxrlanish hissini shakllantirishda milliy ma'naviy tariximizni o'rganish maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarni qadimiy me'morchilik yodgorliklari to'g'risida bilimlarini shakllantirishda texnologiya fanining alohida o'rni bor. Texnologiya fani mashg'ulotlarida o'quvchilarni qadimiy me'morchilik yodgorliklari to'g'risida bilimlarini shakllantirish maqsadida o'qituvchi quyidagi vazifalarni o'z oldiga qo'yishi maqsadga muvofiq:

-ta'limning interfaol usullaridan foydalanib, o'quvchlarning individual va jamoaviy mehnat ko'nikmasini shakllantirish va tizimlash;

- istiqlol tufayli respublikamizda yo'qolib borayotgan milliy hunarmandchilikni qayta tiklash;

- hunarmandchilik elemenlarini o'sib kelayotgan yosh avlodga o'rgatish;

-milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, ota-bobolarimiz qoldirgan boy merosini qadriga yetish;

- yoshlarni milliy iftixor, milliy g'urur tuyg'ulari bilan tarbiyalash;

-ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan obidalar, asori-atiqalarni qayta ta'mirlash, ularga qaytadan joziba va go'zallik baxsh etish;

-begonaga aylantirib qo'yishga qilingan harakatlar oralig'idagi pardalar ko'tarilib haqiqat yana qayta qaddini rostlanishi;

- yurtimizda Alpomish, Al-Buxoriy, Al-Farg'oniy, Amir Temur va yana ko'plab bobokalonlarimizning buyuk siymolar sifatida qadri tiklanishi, ularning ruhi poklarini shod qilish, qolaversa keyingi avlodlarga yetkazish maqsadida qurilgan betimsol yodgorliklar, asori-atiqalar to'g'risida ma'lumotlar berish;

-me'moriy yodgorliklar bunyod etilgan Xotira maydonlari ana shunday majmualardan biri ekanligi haqida mashg'ulotlarda so'zlab berish . [1;2]

Miloddan avval, xususan, tosh davrida insonlar Teshiktosh kabi g'orlarda asosan daraxt shoxlari va poxoldan ishlangan konussimon joylarda yashab kelganlar. Aholining bir qismi ko'chmanchilikdan o'troqchilikka o'tgach, tosh, guvala, paxsa va

sinchli uylar qurila boshladi. Bronza davrida O'zbekiston hududining janubida Sopollitepada murakkab me'morchilik ansambllari vujudga keldi. Ilk Temir davriga kelib esa, to'g'ri to'rtburchak va aylana tarxli qal'alar bunyod qilina boshladi. Masalan: Miloddan avvalgi 3-asrlarda bunyod etilgan inshoatlardan Qiziltepa va Bandixontepa to'g'ri to'rtburchak tarzida qurilgan bo'lsa, Kuchuktepa va Kuyqirqilgan qal'alar esa, aylana tarzida murakkab etib bunyod etilgan.[2;3].

Grek-Baqtriya va Kushon podsholiklari davrida qurilgan saroylar yanada hashamatli va yanada murakab kompozitsiyaga ega bo'lган bo'lib, markaziy zali yoki hovlisi turli maqsadlarga xizmat qiladigan ko'p sonli binolar bilan o'ralgan, yog'och o'ymakorligi san'atining namunalari e'tiborga molikdir. Bundan bir yarim ming yilcha muqaddam mazkur joyda maxalliy xukmdor xukmronlik qilgan. Mutaxassislar bu joyda ulkan san'atga daxldor naqsh o'ymakorligi bo'lganligini qayd etmoqdalar. Bu yangilik diyorimizda yog'och o'ymakorligi san'atining ancha oldindan rivojlanganligini isbotlaydi.

Ko'rinib turibdiki, O'rta Osiyo, shu jumladan Respublikamiz hududida ham 9-11-asrlarga kelib madaniyat yanada taraqqiy eta boshladi. 9-asrda Samarqandning o'zi mustaqil davlat bo'lib qolishi madaniyat va ma'rifatda yangi burilish yasashga olib keladi. Bu davrga kelib Abu Ali ibn Sino, Rudakiy, Firdavsiy, Abu Rayxon Beruniy, Muxammad al Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy kabi buyuk olimlar, faylasuflar, yozuvchilar, adabiyot va madaniyat arboblari yetishib chiqdi. Bu kabi allomalarining o'tkir zehni Buxorodagi Ismoil Somoni maqbarasi, Narpay tumani Tim qishlog'ida Arab ota maqbarasi, Termizdagi Qirqqiz saroyi, Fayoz tepa, Navoiy tumanidagi Mirsaid Baxrom maqbarasi, Navoiy shahri yaqinidagi Sulton Saodat ansambli va Raboti Malik karvon saroyi singari jahonga mashhur bo'lган me'morchilik yodgorliklarini qurilishiga olib keldi. Shular va shu kabi asori-atiqalar o'sha davrlarda me'morchilik san'ati yuksak darajaga ko'tarilganligini, ular badiiy hunarmandlar tomonidan jozibador qilib bezatilganligini ko'rsatadi. Ilk o'rta asrlarda saroylar shahar qal'asidan tashqarida qurilgan, 10-asrlarga shahar tarkibida qurila boshladi.

Buxoroda qal'a oldida, Urganchda shaharning bosh maydonida, Samarqandda esa Shaharistonda shunday saroylar bunyod etildi. Saroy me'morchiligidagi yog'och

konstruksiyalaridan foydalanildi. Kishini xayratga soluvchi va o'ta nafis, tabiiy qilib ishlangan yog'och o'ymakorligi namunasi 12-asrga tegishli bo'lib, u Samarqanddag'i Shoxi-zinda devori orasidan topilganligi so'zimiz isboti sifatida aytib o'tishimiz mumkin. Fan va madaniyat, adabiyot va san'atning rivojlanib borishi buyuk sarkarda Amir Temur nomi bilan chambarchas bog'liqdir. U xukmronlik qilgan davrda me'morchilik bilan bir qatorda amaliy bezak san'ati ham yuksala bordi. [1;3].


Xo'ja Ahmad, Ko'sam ibn Abbos, Turkan og'a, Tug'liq Tekin, Amirzoda Ali Nafasiy maqbaralari yog'och o'ymakorligi va koshin bilan jozibador qilib bezatildi. Amir Temur davrida Samarqandni balandligi 8 metrgacha bo'lgan devor bilan aylantiriladi. Shaharni kesib o'tadigan Buxoro-Farg'oni yo'lini kengaytirib savdorastalari, timlar qurdirdi. U o'zi istilo qilgan o'lkalardagi eng mashhur me'mor va hunarmandlarni Samarqandga olib kelishi, shaharda hunarmandlarning guzar va maxallalarini vujudga keltira boshladи.

Amir Temur qurdirgan imoratlarning o'zgacha ekanligini, Samarqand va Qashqadaryo vohasini bir-biridan ajratib Turkiston tog' tizmalarida bunyod etilgan Oqsaroy me'morchilik yodgorligi misolida ham ko'rishimiz mumkin. Ushbu obida 20 yil davomida qurilgan bo'lib, ko'kka viqor bilan qad rostlab turibdi. Oqsaroy 2 ta yirik ravvoqdan va bu ravvoqlar 38 metrdan so'ng qubba shaklida birlashtirilgan. Har 2 arknинг oralig'i 22,5 metrni tashkil etadi.



16-17-asrlarga kelib me'morchilikda inshoatlarning ko'rinishlari yanada takomillashdi, monumental binolarning tashqi qiyofasiga o'zgarishlar kiritildi. Shu davrda bunyod etilgan Mir arab madrasasi, Xo'ja Zayniddin masjid-xonaqosi,

Chorbakir minorasi, Sherdor madrasasi, Buxoro va Toshkentda buniyod etilgan Ko'kaldosh madrasalarida o'sha davr yog'och o'ymakorligining ajoyib namunalari o'z aksini topganligi haqida ma'lumotlar beriladi.



O'quvchilar texnologiya fani mashg'ulotlari jarayonida qadimiy me'morchilik yodgorliklari, Temuriylar davri haqida nazariy bilim va ko'nikmalar oladilar.

Xulosa o'rnida shunday deyish mumkinki, mustaqillikka yo'l ochgan birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning "Tarixiy xotirasiz - kelajak yoq" degan so'zlari O'zbekiston tarixini yangicha qarashlar orqali dunyo sahnasiga olib chiqdi. O'zbekiston o'zining buyuk allomalari, boy tarixi bilan faxrlansa arziydi, madaniy va tarixiy merosimiz bizni faxr va iftixorimizga aylangan. Demak, Texnologiya mashg'ulotlarida o'quvchilarda qadimiy me'morchilik yodgorliklari to'g'risida bilimlarini shakllantirib borish bugungi kundagi dolzarb masaladir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Toshkent. Mehnat. 1991.
- 2.Bulatov S.S, Mansurov O'. Milliy me'morchilikda amaliy san'at falsafasi. Toshkent. Fan, 2005.
- 3.Bulatov S.S, Yo'ldoshev X.A, Tursunaliyev N.Yu. Kulolchilik san'ati. Qo'llanma. Toshkent. Nizomiy nomidagi TDPU, 2002. 31 b.
- 4.Ahmetova A.S., Ismatullayeva M.Z. Xalq hunarmandchiligi. Toshkent. Iqtisod-Moliya. 2009.
- 5.Bulatov S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Toshkent. Mehnat. 1991.

- 6.Uy-ro'z'g'or ensiklopediyasi. Toshkent. Ensiklopediya. 1978.
- 7.Rasulova R. O'zbek kashtachilik san'ati. Toshkent. GIXL O'zbekiston. 1960.